

**FELETON, PAMFLET VA GONZO USLUBI FENOMENI, MUALLIF
MAHORATI VA POZITSIYASI**

Nodira Suleymonova

*O‘zJOKU Xalqaro jurnalistika yo‘nalishi
magistranti*

Ilmiy rahbar: Yoqutxon Erkaboyeva

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada feleton va pamflet kabi yetakchi janrlar va gonzo uslubining o‘xshash tomonlari, uslubi va tili, o‘ziga xos xarakteri, matn kompozitsiyasi, muallif mahorati va pozitsiyasi tadqiq qilindi.*

***Kalit so‘zlar:** feleton, pamflet, gonzo-jurnalistikasi, gonzo uslubi, reportaj, “Mushtum” jurnali.*

Gonzo – bu jurnalistikaning o‘ziga xos turi, aniqrog‘i reportajning, bunda hodisaning obyektiv ko‘rinishiga subyektiv ko‘rinish beriladi. Bunday reportajda asosiy rolni his-tuyg‘ular va voqea-hodisa joyida muallifning boshidan o‘tkazayotgan ko‘rguliklari muhim sanaladi. Agar umume’tirof etilgan tushunchalarda reportaj hodisaning haqiqiy tomonini ishtirokchi pozitsiyasidan yoritishni nazarda tutsa, gonzoda voqeaning o‘zi fonga o‘tadi va muxbir atrofida sodir bo‘layotgan voqealar to‘liq ochib beriladi: vaziyat, odamlar va ularning xatti-harakati. Ushbu uslub aslida realdir, unda tartibga solinadigan normalar yo‘q va tushuntirish uslubi butunlay muallifning xarakteriga bog‘liq.

Gonzo-jurnalistika ijtimoiy, fuqarolik jurnalistika hisoblanadi, undan hech qachon ko‘ngilochar, bachkana mavzularni yoritilishini kuzatmaymiz. U jamiyatda mavjud ijtimoiy-siyosiy muammolarni muallif tomonidan o‘z shaxsiy pozitsiyasida turib fikr bildirishini taqozo etadi. Muallifdan shunday mahorat talab qilinadiki, ma’lum muammoni o‘z vaqtida, joyida, o‘rnida, asosli ko‘tarishi, jamoatchilik fikrini shakllantirishi, e’tiborini jalb etishi, huquqini talab qilishni o‘rgatishi, auditoriyada mavzu doirasida keng muhokamalarga sabab bo‘lishi va eng muhimi bu muammolar ijobiy hal qilinishiga erishishi kerak. Bunda u yaratayotgan matn, tasvir materiallarida so‘z boyligi va ta’sirchanligi, keskin, o‘tkir tanqid, fikr-mulohazalar, sarkazm, yumor, kinoya bilan boyitishili mumkin. Shu jihatdan gonzoqa qarash jurnalistikaning boshqa janrlariga ham o‘xshab ketadi, masalan, feleton, pamflet singari.

Hayotning barcha sohalarida uchraydigan nuqsonlar, kamchiliklar, ijtimoiy illatlarni keskin tanqid qiladigan janrlardan biri bu – feleton. Mavjud kamchilik va nuqsonlarga jamoatchilikning diqqat-e’tiborini qaratadi. Pirovardida, bu nuqsonlarning bartaraf etilishiga, shu orqali jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shadi. Bu janrning o‘ziga

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

xos xususiyati noxush holatlarga jurnalist-muallifning satira va yumor orqali munosabat bildirib, ijtimoiy tanqidni amalga oshirishidir.[1,410]

Feletonning publitsistikaning ijtimoiy va boshqa turlarida qo‘llaniladigan tanqidiy maqola va boshqa janrlarga oid materiallaridan farqi uning hajviy publitsistika qonuniyatlariga asoslanishi, ya‘ni, ijtimoiy kulgi, satira va yumor vositalariga tayanishidadir. Ijtimoiy kulgining xil va ko‘rinishlari turlicha bo‘lib, ular orasida kinoya, piching, hazil, yengil kulgi kabilar bilan bir qatorda zaharxandali kulgi, ijtimoiy masxaralash, “grotesk” (ataylab bo‘rttirilgan kulgi), hattoki ayrim haqoratomuz so‘zlardan foydalanish kabi hajv vositalari ham mavjuddir. Feletonda ijtimoiy kulgining ana shu serqirra usullaridan keng foydalaniladi.[2,257]

Pamfletning satirik asosi kinoya, istehzo, piching, shu bilan birga kamchilik va nuqsonlarga nisbatan qahrli ifoda bo‘lsa-da, jamoatchilik oldida ko‘tarinki ruh bilan so‘zlash va publitsistik jihatidan voqelikning dolzarbligi va tezkorligiga ahamiyat berish pamflet janriga xosdir. U aniq faktlarga asoslangan bo‘lib, fosh etish obyekti – jamiyatda, jamoatchilik diqqat markazida bo‘lgan, muhim e‘tiborga molik yirik ijtimoiy hodisa, davlat yoki jamoat arboblari hisoblanadi.[1,426]

Tarixan pamflet – ijtimoiy va siyosiy ongni shakllantirishda, siyosiy muholiflarga qarshi kurashda o‘tkir qurol bo‘lib kelgan. Ammo bugungi kunda feleton kabi pamflet ham matbuotda kamdan-kam uchraydigan hodisaga aylangan. Shunday bo‘lsada, bu janr mutlaqo yo‘qolib ketmagan va uni o‘rganish jurnalistlar uchun juda foydali.[1,427] Shuningdek, gonzo janr bo‘lmasa-da, uslub jihatidan bu ikkita janrga juda yaqin turadi. Ularning maqsadi, yoritilish shakli bir xil, o‘xshashdir. Pamflet va feleton janrlari nafaqat axborotni yetkazish, balki unga o‘quvchida muayyan munosabat uyg‘otish va hattoki chora ko‘rishga undashga qaratilganligi uchun ham ularda ta‘sirchanligi juda kuchli.[1,429]

Boshqa publitsistik janrlar singari pamflet, feletonda ham muallifning obrazi va o‘ziga xos uslubi ko‘pincha bilinib turadi. Bunda ayniqsa, uning fikrlash tarzi, borliqqa munosabati, foydalanadigan ijodiy usullari yaqqol namoyon bo‘ladi.[1,430] Gonzo uslubida ham muallif “men”i birinchi o‘rinda ko‘zga tashlanib turadi. Uning telbalarcha fikr yuritishi, voqeani boricha talqin qilishi yoki bo‘rttirib ko‘rsatishi yuqoridagi ikki janr va uslubning yaqinligini bildiradi.

Bu janr va uslubning qorishuvi, o‘zaro uyg‘unlashuvini gonzo-jurnalistikasi asoschisi Hanter Tompsonning ijodida ham kuzatish mumkin. Tompsonning shaxsi ham ijodi kabi g‘alati. U o‘zida ham murosasiz ruhiyatni, ham noodatiy iste‘dodni birlashtirgan fe‘l-atvor egasi edi. Jamiyatda o‘rnatilgan har qanday tartib va qonunlarni

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

mensimasa-da, u o‘sha davrda demokratlar partiyasining nufuzli a‘zolari hurmatini qozona olgan.

Tompson respublikachilar partiyasi va uning barcha rahbarlari, ayniqsa, Richard Niksondan nafratlanagan. Tanqidiy maqolalarida ham asosiy nishoni Niksonga qaratilgan bo‘lib, u haqidagi keskin fikrlarini ochiq-oydin bildirishdan hech qachon tortinmagan. Masalan, 1968-yil “Pageant” haftalik jurnalida “Tanishing: qo‘g‘irchoq “Richard Nikson” nomli maqolasi nashrdan chiqadi.[6] Bu maqola tanqid, piching, radikal kesatqlar bilan shu qadar to‘la edi, hatto muallifning bo‘lg‘usi prezidentni rad etuvchi, tan olmasligini oshkora bildiruvchi fikrlari ifodalangan edi. Maqola AQSHda prezidentlik saylovlari davom etayotgan va Niksonning bu saylovda g‘alaba qozonib, mamlakatning 37-prezidentligiga saylanishi arafasida e‘lon qilinadi. Maqolada Richard Niksonning PR kompaniyasi va uning atrofidagi gap-so‘zlar haqida ham bir qancha jiddiy dalillar keltirilgan. Qisqacha aytganda, Hanter Tompson AQSHning 37-prezidentiga hukumatning PR xizmati qo‘lidagi oddiy qo‘g‘irchoq sifatida qaragan.

Gonzo formatida ishlaydigan jurnalist uchun aniq belgilangan qoidalar va tizimlar mavjud emas. Gonzo-jurnalistikasida hikoya tuzilishini aniqlash qiyin, chunki o‘quvchi nima bo‘layotganini nafaqat muallifning ko‘zi bilan ko‘radi – o‘qiyotganda muallif kabi fikr yuritadi. Gonzo jurnalistikasi ko‘pincha “ong oqimi” texnikasidan foydalanadi. Bu atama amerikalik idealist faylasuf V. J. Joys tomonidan kiritilgan. Uning ta‘rifiga ko‘ra, ong – bu fikrlar, hislar, to‘satdan birlashmalar doimo bir-birini to‘xtatib turadigan va “mantiqsiz” bir-biriga bog‘langan daryodir.[7]

Nima bo‘layotganini tasvirlash, xos va mos so‘zlarni topish uchun H. Tompson vaziyatga aralashadi, voqea qahramonlari dunyosiga sho‘ng‘iydi. Tompsonning ma‘lumot to‘plash usuli shundaki, muxbir jurnalistik sarguzashtda muallif tashqi kuzatuvchi va voqea qahramoni o‘rtasida bo‘ladi. Tompsonning matnlarida haqiqiy faktlar va muallifning fantaziyasi uyg‘unlashgan. Jurnalist suhbatdoshlarining tasvirlarini giperbolizatsiya qiladi, voqealarni karikatura bilan tasvirlaydi. Bu o‘quvchiga muallifning g‘oyalari va hodisa haqidagi mulohazalarini tushunishga yordam beradi.

Jurnalistikaning asosiy qoidalaridan farqli o‘laroq, Tompson sodir bo‘layotgan voqealarga subyektiv qaradi. Matn tafsilotlarga to‘la, o‘quvchi nima bo‘layotganini muallifning ko‘zi bilan ko‘radi. Bu ta‘sirga erishish birinchi shaxsning hikoyasi orqali osonlashtiriladi. Hikoyaning tuzilishini aniqlash qiyin, chunki dinamik hikoya va muallif-qahramonning ichki monologi kabi kompozitsion birliklarning aralashmasi mavjud. Tompson jurnalistning fe‘l-atvori bilan bog‘liq va o‘zi duch kelgan vaziyatlarga mos keladigan haqoratli so‘zlarni faol ishlatadi. Hikoya aytib berish, reportajga mos

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

obrazni topish uchun Tompson giyohvandlar, ichkilikbozlar va qimorbozlar yashaydigan Amerika jamiyatining tubiga tushadi. Tompson ularni erkin jamiyatning pastki qismi sifatida ko‘rsatadi.

XX asr o‘zbek publitsistikasida feleton alohida o‘rin tutadi. Mazkur janrning vujudga kelishi va taraqqiy etishida atoqli taraqqiyparvar ijodkorlar M. Behbudiy, M. Abdurashidxonov, I. Obidov, A. Avloniy, H. H. Niyoziy, Cho‘lpon va boshqalar katta xizmat qildilar. Mashhur o‘zbek adibi A. Qodiriy yigirmanchi yillarning mohir feletonchisi sifatida samarali ijod qildi. Xususan, uning “Mushtum” jurnalining 1925-yil 10-sonida chop etilgan “Milliy ashulachimiz” Muhiddin Qori Italiyadan o‘qib qaytdimi?” nomli asari feletonga yaqqol misol bo‘ladi. Asarda feletonga xos ko‘pgina elementlardan foydalanilgan. Masalan, muallif qahramonining kiyinishi yurish-turishini tasvirlar ekan, istehzo bilan: “Boshida amerikanacha shlyapa, qo‘lida fil tishidan ziynatlangan tayoq, kiyim-bosh judayam quling o‘rgilsin”, – deb yozadi.[3,139] Feleton mashhur san’atkor haqida. U respublika xalq artisti unvoniga ega. Bir qaraganda oddiy hol. Lekin mahoratli yozuvchi shu faktdan ham juda ustalik bilan foydalanib, uni feletondan ko‘zlangan maqsadga “yo‘naltirib” yubora olgan.

Mustaqillik yillarida jadidlar, ma’rifatparvarlar qatorida ko‘pgina jurnalistlarimiz jon kuydirib yana feletonlar yozishda davom etganlar. Shundan, “Mushtum” jurnalining 1992-yil 17-18-sonida Karim Bahriyevning “Qalb inqilobi” maqolasi chop etiladi. Unda jurnalist mustaqillikka erishgan yosh O‘zbekistonni haqiqatda mustaqil bo‘ldimi yo erki hali ham kimlarningdir qo‘lidaligi havotirga soladi. Maqola bir qiziqarli, o‘xshatishli, kinoyalari rivoyat bilan boshlanadi. Yuz yil zanjirga bandi qilingan fil qoziq atrofida aylanib turaverar ekan. Oxiri zanjir zanglab, chirib, uzilib ketibdi hamki, fil shu qoziq atrofida aylanib yuraverar ekan. U zanjir bir kun kelib uzilishini tasavvur ham etolmas ekan. Bu bilan muallif “mustaqil O‘zbekiston”ni tili yechilgani bilan qo‘li yechilmaganini, bordi-yu qo‘li yechilsa-da dili zanjirband bo‘lib qolaverishini ta’kidlaydi.

“Men mustaqilligimizning kelajagi ana shu narsaga – xalqimiz dilidagi zanjirlarning uzilishiga bog‘liq, deb bilaman va bu jarayon uzoq kechsa kerak. Hozircha qo‘shig‘imiz o‘zgarmoqda. Qarang, kecha Lenin haqida xaltura yozganlar bugun Amir Temur haqida o‘sha darajada yozmoqda, kecha qizil askarni maqtaganlar bugun bosmachini ko‘kka ko‘tarmoqda. Xudo haqqi, gap shundaki, yuksak badiiy asar yozish qo‘lidan kelmaydigan kishi istalgan g‘oyani o‘ziga xizmat qildiraveradi... Biz qafasdan ozod bo‘layotgan qushlarmiz. Ozodlik shuning evazigaki, endi o‘z donimizni o‘zimiz topib yeymiz, o‘zimizni o‘zimiz himoya qilamiz. Lekin ko‘plar yana qafas himoyasini

qo‘msamoqdalar, oz bo‘lsa-da, minnat bilan bo‘lsa-da, sobiq markaz tashlab turgan “donni” sog‘inmoqdalar”. [4]

Pamfletning janr sifatida paydo bo‘lishini ko‘plab tadqiqotchilar qadimgi gretsiyalik shoir Ezop ijodi bilan bog‘lashadi. Yevropada ushbu janrning asoschilari sirasiga fransuz faylasufi Blez Paskal (“Qishloqlikka maktublar”), ingliz yozuvchisi Bernard Mandevil (“Bosh ko‘targan ari uyasi, yoki halol bo‘lib qolgan muttahamlar”), Erazm Rotterdamskiy (“Qabih odamlar maktublari”, 1515-y), Fransua Rable (“Gargantyua va Pantagryuel”, 1534-y) kabi adiblar kiradi. Pamflet mazmun-mohiyatan juda katta siyosiy-ijtimoiy xarakter kasb etib, bu janrda yaratilgan asarlar va uning mualliflariga nisbatan keskin choralar ko‘rilganining o‘zi ham uning ijtimoiy kuchi qanchalik kuchga ega bo‘lganidan dalolat beradi. Har bir yozilgan pamflet jamiyat illatlariga nisbatan “bomba” vazifasini o‘tagan. [1,427] Xuddi shunday H. Tompson ham vaqtida AQSHning 37-prezidenti Richard Niksonni o‘zining gonzocha maqolalari bilan tanqid qilavergan, natijada esa prezident impichment olib iste’foga chiqqan.

Aytish mumkinki, gonzo uslubi ham xuddi mana shu ikki: feleton va pamflet singari ta’sir kuchiga ega. Ularning barida faktlar bilan ishlaganda mubolag‘a, faktlarni bo‘rttirib ko‘rsatish, piching, istehzo, kinoya, sarkazm, diqqati qaratilgan shaxsni so‘z bilan yanchib tashlash, tili keskir, achchiq va eng muhimi har uchchalasida muallif tilidan yoziladi, muallif pozitsiyasi ko‘zga yaqqol tashlanadi. Quyida pamfletga misol bo‘la oladigan materialning tilini ko‘rib chiqsak. Ushbu maqola “Mushtum” jurnalining 2006-yil 4-sonida muallif Ibrohim Normatovning “Chirqildoq” sarlavhasi ostida e’lon qilingan. Unda Arkadiy Gorkiy ismli shaxs I. Normatovga nisbatan boshqa maqolalarda tuhmat va haqoratlaganlarini iddao qiladi. Jurnalistni va umuman o‘zbek jamiyatini demokratiyani tushunmaydigan, so‘z erkinligi nima ekanligini faxmlamaydiganlar qatoriga qo‘shib mazax qilgani uchun Normatov ham chirqildoq deya keskir so‘zlari bilan nasibasini beradi:

“Nomard, o‘zing suv ichayotgan quduqqa tupuribsan. Iroqdagi bugungi vaziyat uchun O‘zbekistonni, o‘zbeklarni va “har xil toifadagi qalang‘i-qasang‘i normatovlar, qudduzlar, oripovlar, vohidovlar”ni ayblabsan. Hechqisi yo‘q, bu aqling zaifligining alomati. Buning davosi bor: O‘zbekistonga qiyoslab o‘sha o‘zing aytgan va to‘shakdan-to‘shakka sakrab yuradigan ayollarning hammasini emas, faqat bittasini em, shunda aqling quyiladi. Hozir, chamamda, o‘zing qalang‘i-qasang‘i bo‘lib qolgan ko‘rinasan. “O‘zbek” degan so‘zni ko‘p ishlatibsan. Agar g‘ashing kelayotgan bo‘lsa, jinsing va shaxsing kabi millatingni ham o‘zgartirib ol. Shunda o‘zing aytganday “soat mayatnigiga o‘xshab goh u tomonga, goh bu tomonga” likillayverasan.

Chirqildoq, bilib qo‘y, siyosatda ham, milliy qadriyatda ham biz qat‘iymiz, senga o‘xshaganlar esa sadaqaning salmog‘iga qarab likillayverishadi”.[5]

Ushbu pamflet yoki boshqa shu kabi materiallar muayyan faktlarga asoslanganligi bilan ularni saralash, baholash, dalillashdan tashqari, muallifning turli obrazlardan, tasviriy va ritorik usullardan foydalanishining o‘zi subyektiv xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi. Buni feletonda ham, gonzo uslubida ham kuzatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Босма оммавий ахборот воситаларида жанрлар ва маҳорат масалалари [Матн] V жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2019. – 513-б.
2. Худойқулов М. Журналистика ва публицистика. Т., «Тафаккур», 2011.
3. Қодирий А. Кичик асарлар. Т., – 1969. – 139 б.
4. Баҳриев К. Қалб инқилоби // “Муштум” журнали. 1992. № 17-18-сон.
5. Норматов. И. Чирқилдоқ // “Муштум” журнали. 2006. № 4-сон.
6. <https://dmgusev.livejournal.com.1151906.html>
7. <https://www.psychology.ru/library/00023.shtml>